



OTNING XUSUSIY LUG'AVIY SHAKLLARI HAQIDA

Ermatov Ixtiyor Rizaqulovich

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
Guliston davlat universiteti,
ermatov.ixtiyor@mail.ru

Mamaraximov Sirojiddin Murtozayevich
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,
mamaraximov90@umail.uz

Narzullayeva Odinabonu Abdulla qizi
Guliston davlat universiteti,

Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10799303>

ARTICLE INFO

Received: 06th March 2024

Accepted: 07th March 2024

Published: 09th March 2024

KEYWORDS

baho, modallik, morfema,
qo'shimcha, ot, morfologik tahlil,
asos, tahlil, so'z turkumlari,
grammatik shakl, subyektiv baho
shakllari

ABSTRACT

Ushbu maqolada otning xususiy lug'aviy shakllari va ularning nomlanish, tasniflarga ajratish masalasi atroflicha fikr yuritilgan. Subyektiv baho shakllar so'zlovchining nutqda ifodalagan shaxsiy munosabatini bildirishi haqida batafsil tushunchalar berildi.

O'zbek tilshunosligida so'nggi vaqtlarda so'z shakllari, so'zlarning grammatik shakli va ularning turlari, xususan, kategorial va nokategorial shakllar va ularning turlari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin bu borada tilshunosligimizda muayyan masalalar, xususan, shakl yasalishi borasidagi fikr va qarashlar xilma-xilligini ham ko'rishimiz mumkin. Maqolamizda o'zbek tilidagi otlarning modal ma'no ifodalashi bilan bog'liq bo'lgan so'z shakllari va bu guruh shakllarning nomlanish har xilligi masalasiga atroflicha to'xtalangan.

Otlarning modal (subyektiv) ma'no ifodalovchi shakllari, ularning turlari, yasalish usullari, ifodalaydigan qo'shimcha ma'nolarini haqida gapirishdan oldin «modallik», «modal shakl», «modal ma'no» kabi tilshunoslik terminlari ifodalaydigan tushunchalariga ham to'xtalish lozim.

MODALLIK [*fr. modalite, lot. modus — usul; mayl*] Fikrning, gap mazmunining voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya. (*O'TIL, 2-tom*). Umuman olganda, modallik juda keng bo'lib, fikrning voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatadigan usullar majmuasidir. Ma'lumki, fikr, birinchi galda, gap orqali ifoda qilinadi. Shu bilan birga, gapda voqelikka, obyektiv borliqqa bo'lgan munosabat ham o'z ifodasini topadi.¹

Otlarning modal shakllari (subyektiv baho ifodalovchi shakllar) kichraytish, kichraytish-erkalash, erkalash-suyish, hurmat va aksincha, kamsitish, kesatish, kabi ma'nolarni; predmet va shaxslarni boshqa xuddi shu kabi shaxs va predmetlardan ajratib ko'rsatish ma'nolarini;

¹ P. Икромов. Ўзбек тилида отларнинг синтетик, аналитик ва функционал формалари. Т: 1985 й

predmet va shaxslarga nisbatan gumon, chama, taxmin, faraz bilan qarash ma'nolarini; predmet va hodisalarning ma'nosini ta'kidlash, ularga kuchaytiruv ma'no qirralarini qo'shish kabi xilma-xil qo'shimcha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Otlarning bunday xilma-xil modal ma'nolarga ega bo'lgan shakllari esa nutqda turli usullar bilan (sintetik, analitik, leksik-fonetik kabi) yasaladi.

Umuman olganda, ot leksemalardagi modal ma'no ifodalovchi shakllarning ba'zilari (kichraytirish-erkalash va hurmat, ajratish-yakkalash shakllari va hokazolar) otning leksik ma'nosidan anglashiladigan predmet yoki hodisaning mohiyatiga, xususiyatiga, tabiatiga doir bo'lgan qo'shimcha belgini, so'zlovchining predmet va hodisalarga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash uchun xizmat qilsa, ba'zilari (bosh kelishik shaklsida takrorlangan otlar) otning leksik ma'nosiga qo'shimcha ottenka (modal ma'no) qo'shish bilan birga, uning sintaktik funksiyasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra ularni kichraytirish-erkalash va hurmat, ajratish-yakkalash, gumon-chama, kuchaytiruv-ta'kid va funksional shakllarga ajratish mumkin. Bu shakllar shakllanish xususiyatiga ko'ra sintetik, analitik, juft va takroriy shakllarni o'z ichiga oladi.

Otlarning kichraytirish-erkalash va hurmat shakllari so'zning leksik ma'nosiga predmetni kichraytirish, erkalash, suyish, hurmatlash; kamtarlik, va aksincha, manmanlik, takabburlik, kamsitish, kesatish kabi modal ma'nolar qo'shishga asoslanadigan shakl o'zgarishidir. Bu esa «kichraytirish-erkalash» va «hurmat» terminlarining shartli ekanligini, bu shakllar ifodalaydigan ma'nolarni to'la qamrab ololmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham bunday shakllarni tom ma'noda kichraytirish - erkalash va hurmat shakllari deb tushunmaslik kerak.

Otlardagi modal ma'no ifodalovchi shakllarning nomi ularning xususiyatlari turlicha talqin etilganligini ko'rishimiz mumkin, jumladan, tilshunos R.Qo'ng'urov: Tilshunoslikda, subyektiv baho shakllari mustaqil morfema sifatida o'zi qo'shilgan negizning leksik ma'nosi yoki uning boshqa so'zga bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik jihatidan aniqlanishida, baholanishida, atalishida ham haligacha turli xillik uchrab turadi. O'zbek tilshunosligida ham subyektiv baho shakllari goh so'z yasovchi, goh shakl yasovchi, goh so'z o'zgartiruvchi kategoriya sifatida talqin qilinadi. Subyektiv baho shakllarining stilistik xususiyatlari haqida ularni anglatgan ma'nolariga qarab erkalatish, kichraytirish, ulug'lash, kamsitish, hurmat bildiruvchi alohida-alohida gruppalariga ajratgan holda gapirish mumkin, deb ta'kidlaydi.²

Tilshunosligimizdagi so'nggi tadqiqotlar va izlanishlarni o'zida aks ettirgan R.Sayfullayeva, B.Mengliyevev va boshqalarning Hozirgi o'zbek adabiy tili nomli o'quv qo'llanmasida otlarning subyektiv baho formalarini otning xususiy lug'aviy shakllari: kichraytirish, shaxsiy munosabat shakllari, kichraytirish-erkalash paradigmasi³ tarzda nomlangan.

Yuqoridagi fiklardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, otlarning subyektiv baho ifodalovchi shakllarining ma'nolari nutq jarayonida shu darajada xilma-xilki, ba'zan ma'lum shaklning qaysi ma'no anglatish uchun ishlatilganligini aniqlab olish u darajada oson bo'lmaydi. Ya'ni

² P. Қўнғуров Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Т: 1980 й .

³R. Sayfullayeva, B. Mengliyevev va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. T: 2009. 231-bet

ayrim olingan shakl ham kichraytish, ham erkalatish, o'rne bilan kesatq ma'nolarini ham bildirishi mumkin.

Demak, bunday shakllar haqida to'rt guruhda takroriy gapirishga to'g'ri keladi. Shu sababli, sub'yektiv baho ma'nosining ifodalanish usuli jihatdan guruhlarga ajratishni (fonetik, morfologik, analitik yoki sintaktik hamda aralash yo'l) lozim topdik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE" CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN, 1(4).
2. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. *Pedagogika*, 171.
3. Ahrorov, A. (2022). O 'zbek xalq maqollarida "nutq odobi" ma'nosining ifodalanish darajasi. *Uzbekistan: Language and Culture*, 4(4).
4. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, 11(11).
5. Akhrorov, A. A. (2020). THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLK PROVERBS IN THE UPBRINGING OF A PERFECT PERSON. *Theoretical & Applied Science*, (1), 42-44.
6. Akbarovich, A. A. (2023). МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МА'НОНИНГ НАМОЙОН ВО 'ЛИШ ОМИЛ, ВОСИТА ВА УСУЛЛАРИ. ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 163-166.
7. Эрматов, И. Р., & Турдикулова, К. (2022). "ГАП БЎЛАКЛАРИ" МАҚОМИНИНГ БЕЛГИЛАНИШМЕЗОНЛАРИ ҲАҚИДА. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 190-193.
8. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
9. Эрматов, И. (2022). ЛЕКСИК-ФРАЗЕОЛОГИК ТИЗИМДА ЭКВОНИМИК МУНОСАБАТЛАР. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 11-17.
10. Эрматов, И. (2022). ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ГИПОНИМИЯ ВА ЭКВОНИМИЯ ҲОДИСАЛАРИНИНГ КЕСИШУВИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 173-178.
11. Ermatov, I. (2022). Hozirgi ozbek adabiy tili (Morfemika, so 'z yasalishi, morfonologiya). *Scienceweb academic papers collection*.
12. Berdialiyev, A., & Ermatov, I. (2021). Hozirgi o 'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). T.: "TURONIQBOL" nashriyoti, 204.
13. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG 'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
14. Xudoyqulova, S., & Dehqonova, L. (2021). ABDULLA QODIRIYNING SO 'Z QO 'LLASH MAHORATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 589-595.
15. Эрматов, И., & Дехконова, Л. (2021). Об аффиксах, заимствованных из таджикско-персидского в узбекский язык. *Общество и инновации*, 2(2/S), 462-469.
16. Abdullayevna, D. L. (2024). Arab yozuvidagi harflarning she'riyatdagi jilosi. *Journal of Universal Science Research*, 2(2), 25-28.

17. Dexkanova, L. (2023). ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING O 'ZBEK TILIDA QO 'LLANILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 235-238.
18. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Inguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 688-692.
19. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(4), 244-248.
20. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 75-82.
21. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. Проблемы педагогики, (7 (39)), 77-78.

